

*Nasretdinova Aziza Adxamjonovna*

*Qarshi davlat universiteti, Iqtisodiyot fakulteti*

*Turizm yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

## TURIZMNING SIYOSIY VA IJTIMOY-IQTISODIY AHAMIYATI

**Annotatsiya:**Bugungi global dunyoda turizm nafaqat odamlarning dam olish va ko'ngil ochar faoliyatlari bilan bog'liq bo'lib qolmay, balki mamlakatlarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishida ham muhim o'rin tutadi. O'zbekiston kabi turizm salohiyati katta bo'lgan davlatlar uchun bu soha iqtisodiy o'sish, madaniy almashuv va xalqaro munosabatlarni rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Turizmning siyosiy ahamiyati, avvalo, mamlakatning xalqaro sahnada obro'sini oshirish va diplomatik aloqalarni mustahkamlash bilan bog'liq bo'lsa, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati esa aholining farovonligini yaxshilash, ish o'rinlarini yaratish va mahalliy iqtisodiyotga qo'shilgan qiymatni oshirishda ifodalanadi. O'zbekiston o'zining boy tarixiy, madaniy va tabiiy merosi bilan turizmni rivojlantirishda katta imkoniyatlarga ega. Bularning barchasi O'zbekistonni jahon turizm xaritasida yetakchi o'rinlarga olib chiqishga qaratilgan siyosatni amalga oshirishda yordam berishi ushbu maqolada keng talqinda yoritiladi.

**Kalit so'zlari:**diplomatik aloqalar, xalqaro munosabatlar, mahalliy biznes, turizm salohiyati, daromat, iqtisodiy samaradorlik, Buyuk Ipak Yo'li, ijtimoiy barqarorlik, turistlarni jalb etish, infrastrukturaning ahamiyati.

Turizm – bu xordiq chiqarish va dam olish sog'lomlashtirish mehmondorchilik, kasbiy va ish maqsadlarida insonlarning bo'sh vaqtida o'zlarining doimiy yashash joylaridan vaqtinchalik boshqa davlatlar yoki joylardagi vaqtinchalik xarajat qilishlaridir (tashrif buyurgan joyda haq to'lanadigan ish bilan shug'ullanmasdan). Turizm atamasi uzoq yillar mobaynida ko'pgina davlatlarda ishlatilib kelingan. Ushbu so'z —ulkan turli ma'nosidan kelib chiqib va dastlab tanishuv tashrifini anglatgan. Bunday tashrifni XVII-XVIII asrlarda yosh dvoryanlar amalga oshirganlar. Tashrif maqsadi bo'lib turistlarning boshqa madaniyatlari bilan tanishishlari bo'lishgan. Asrlar mobaynida turizmning asosiy belgilanishi - bu sayohatchilarning boshqa davlatlar bilan tanishishlari, boshqa xalqlar bilan aloqalarni o'rnatish hisoblanib kelmoqda. Mamlakat iqtisodiyoti va turizm bir biri bilan o'zaro bog'liq harakatdadir. Umumiqtisodiy omillar turizmga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ijobiy ta'sir omillariga quyidagilar kiradi:

1. Real daromadning oshishi – real daromadning oshishida iste'molchilar o'z ixtiyorlarida katta mablag'ga ega bo'ladilar va tegishli ravishda turizmga talab ortadi;
2. Daromadning tekisroq taqsimlanishi jamiyatda daromad bir tekisda taqsimlansa, ko'proq shaxslar turistik mahsulotni xarid qilishlari mumkin bo'ladi;
3. Valyutaning barqaror holati – agarda chet el valyutasining kursi barqaror bo'lsa, aholi uni ko'p hajmda xarid qilishi mumkin.

Turizmga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga quyidagilar kiradi:

1. Iqtisodiy inqiroz holatlari;
2. Ishsizlikning oshishi, ish haqining kamayishi va hokazolar;

3. Valyuta bilan nobarqaror holat – agarda chet el valyutasining kursi yuqori bo‘lsa, aholi uni kam xarid qiladi va natijadi mamlakat aholisining chet ellarga chiqishi qimmatga tushadi.

Turizm rivojlanayotgan hudud iqtisodiyotiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Turizmning jamiyat ta’sirini uch asosiy yondashish bo‘yicha ajratish mumkin: iqtisodiy, ijtimoiy va gumanitar. Turizmning iqtisodiy ahamiyati. Iqtisodiy holat sifatida turizmga ikki tomonlama qarash mumkin. Iqtisodiy kompleks sifatida. Uning rivojlanishi ko‘pchilik hollarda dunyo xo‘jalik aloqalari, jarayonlar, munosabatlar bilan izohlanadi. Iqtisodiy o‘rnatishning muhim katalizatori sifatida. Bunday holatda turizm yalpi ichki mahsulotni davlatlar o‘rtasida qayta taqsimlash kanali sifatida namoyon bo‘ladi. Hozirgi dunyoda turizm industrial shaklga ega:

- samaradorlikning yuqori darajasi, investitsiyalarning tez qoplanishi bilan tavsiflanadi;
- yangi hududlarni o‘zlashtirishning boshlovchisi (pioneri) hosoblanadi;
- tabiat va madaniy me‘rosni qo‘riqlashning samarali vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Xalq xo‘jaligining qariyb barcha tarmoqlari va inson faoliyatining turlari bilan bog‘liqdir.

Ma‘lumki, rivojlangan davlatlarda chet el turizmidan tushgan daromad rangli va qora metallarning xalqaro savdosiga qaraganda ikki barovarga ko‘pdir. Turizmning daromadlari turistik xarajatlar natijasida shakllanadi. Turistik xarajatlar o‘z ichiga quyidagilarga haq to‘lashni oladi:

- kompleks tashriflarga;
- turlar va dam olish uchun xizmatlar paketiga;
- joylashtirishga;
- ovqatlanishga;
- transportga;
- faoliyatning rekratsion, madaniy va sport turlariga;
- sayyohatning ajralmas qismi hisoblangan iste‘mol mollarini xarid qilishga;
- tibbiy xizmat ko‘rsatishga va boshqalarga.

Qayd qilingan turistik xarajatlar iqtisodiyotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni turizmning iqtisodiy faoliyati milliy daromadni yaratishga o‘z hissasini qo‘shadi. Turizmning mamlakat iqtisodiyoti va jamiyatga ta’sir sohasi bo‘lib hisoblanadi. Tadbirkorlik sohasi. Turistik korxonaning tashkil etilishi naf keltiradi, chunki mijozlarga o‘z mahsulotlari va xizmatlarini taklif etadi, ishchi va xizmatchilarga – ish haqini, aksionerlarga – foydani, davlatga (hududga) – soliq va yig‘imlarni. Iste‘mol va daromad sohasi. Turizm iste‘mol talabining yangi shaklini yaratadi. Turistlarning turli xildagi tovarlar va xizmatlarga bo‘lgan talabi mahalliy sanoatning rivojlanishiga imkon yaratadi. Unga ko‘ra iste‘mol mollarini ishlab chiqarish rivojlanadi va aholining hayot darajasi oshadi. Valyuta sohasi. Turizm katta hajmdagi chet el valyutasi oqimini ta‘minlaydi. Xususan chet el valyutasining kelib tushishi nafaqat tur (paket) uchun haq to‘lash shaklida, balki turistik markazdagi almashtirish punktlarida almashtirish kundalik ehtiyojlar va qo‘shimcha xizmatlarga haq to‘lash shaklida ham bo‘ladi. Ishlab chiqarish infratuzilmasi. Turizm dam olish strukturasi yaratadi, u nafaqat turistlar tomonidan, balki mahalliy aholi uchun ham foydalanilishi mumkin, yangi turistik markazlarning paydo bo‘lishi servis savdo

markazlarining paydo bo'lishiga, yo'llarning qurilishiga, hordiq chiqarish korxonlarining vujudga kelishiga olib keladi va u o'rab turgan infratuzilmaga, iste'mol bozoriga va boshqa tadbirkorlik faoliyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Turistik infratuzilmaning rivojlanishi u yoki bu hududagi aholining hayot darajasining ko'rsatkichi hisoblanadi. Kelish joyida turistlar tomonidan sarflangan pullar bir vaqtning o'zida davlatga (hududga) daromad keltiradi.

Turizm umumiy iqtisodiy muammolarni hal etishga yordam beradi, ammo turistik faoliyatning ko'p qirrali ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, u o'z o'zidan samarali ravishda rivojlana olmaydi. Turizmning iqtisodiy aktivligi to'g'ridan to'g'ri mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi bilan bog'liq. Turizmning iqtisodiy samaradorligi shuni ko'zda tutadiki, mamlakatda turizm xizmat ko'rsatish kompleksining boshqa tarmoqlari bilan parallel ravishda rivojlanishi lozim.

O'zbekiston o'zining boy madaniy merosi, tarixiy obidalar va go'zal tabiati bilan, turizmni rivojlantirishga katta e'tibor qaratadigan davlatlar qatoriga kiradi. "O'zbekiston – 2030" Ctrategiyasida O'zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish vazifasi qo'yilgan. Xorijiy turistlar tashrifi bo'yicha O'zbekiston pandemiyadan oldingi darajaning 98 foizini tashkil etdi. Jumladan, 2019 yilda O'zbekistonga 6 mln 748 ming nafar xorijiy turistlar tashrif buyurgan bo'lsa, 2023 yilga kelib 6 mln 626 ming nafarga yetdi. Bu esa mamlakatimizda turizm sohasining tez sur'atlar bilan tiklanayotganini ko'rsatadi. O'zbekistonga xorijiy turistlarni yanada ko'proq jalb qilish maqsadida viza rejimini soddalashtirish chora-tadbirlari, yangi yo'nalishlarni ishlab chiqish, soha bilan bog'liq loyihalarga investitsiya kiritish, yirik tadbirlarni o'tkazish kabi amaliy ishlar olib borilmoqda.

Masalan, 2023 yilda umumiy qiymati 9,5 trln so'mlik 508 ta loyiha amalga oshirilganligi hisobiga jami 9 492 ta yangi ish o'rni yaratildi. 183 ta yangi mehmonxona va 232 ta xostel faoliyati yo'lga qo'yilib, jami joylashtirish vositalari soni 5 526 taga yetdi. Shuningdek, 452 ta oilaviy mehmon uyi tashkil qilinib, ularning umumiy soni 3 458 taga yetdi. Turistlar uchun xizmat ko'rsatuvchi 810 ta yangi turistik tashkilot va turagentlar faoliyati yo'lga qo'yilishi natijasida ularning soni 2 649 taga yetdi. 2017-2023 yillar davomida O'zbekistonga xorijiy turistlar soni yil sayin ortib bordi. Xususan, 2017 yilda 2,7 mln. nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilga kelib 6,6 mln nafarni tashkil etdi, bu esa 2017 yilga nisbatan 2,5 barobarga, 2022 yilga nisbatan esa 1,3 barobarga oshganini ko'rishimiz mumkin. Sayyohlar soni 2023 yilda Yaponiyadan – 5 barobar, Hindiston va Italiyadan – 3,5 barobar, AQShdan – 2 barobarga ortdi. O'zbekistonga 2023 yilda kelgan xorijiy turistlarning 80,7 foizi qo'shni davlatlar, 11,5 foizi qolgan MDH davlatlari hamda 7,8 foizi boshqa davlatlar hisobiga to'g'ri kelmoqda. Shu bilan birga, turistlarning o'rtacha qolishi 4-5 kunni tashkil etib, 2022 yilga (3 kun) nisbatan 1,5 baravarga ortdi. Bu esa mamlakatda turistlarga har tomonlama qulaylik yaratilganligining natijasidir. Ichki turizmni rivojlantirish bo'yicha ham bir qator amaliy choralar ko'rilmogda. "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" dasturi doirasida 15 mln. nafar aholi sayohatga chiqdi va hududlar bo'ylab 21 mln. tashrif uyushtirildi. Ijtimoiy ko'mak sifatida 1,1 ming nafar imkoniyati cheklangan shaxs va 570 ming nafar yoshlar sayohatga chiqarildi. 2023 yilda turistik xizmatlar eksporti 2 mlrd. 143,5 mln. dollarni tashkil etdi, bu 2022 yilga nisbatan 1,3 barobar oshganini ko'rsatadi. Shuningdek, turizm va unga yondosh sohalar yo'nalishida 70 ming nafarga yaqin yangi ish o'rni yaratildi. Bu esa mamlakatda turistlarga har tomonlama qulaylik yaratilganligining natijasidir. Turizmning rivojlanishi, shuningdek, mamlakatimizning xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallashini ta'minlamoqda. Masalan, "Jahon musulmon sayohati indeksi" (GMTI-2023) xalqaro ziyorat turizmi reytingida O'zbekiston 140 ta mamlakat ichida 13-o'rinni egalladi. "Halal In Travel Awards 2023" tadbirida Xiva shahri "Yilning islom merosi

turizm manzili” sovrinini qo‘lga kiritdi. 2023 yilda Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan UNWTO Bosh Assambleyasining 25-sessiyasida Navoiy viloyatidagi Sentob qishlog‘i “Best Tourism Village 2023 Awards” nominatsiyasi bo‘yicha g‘olib bo‘ldi. Bundan tashqari, “Lonely Planet” xalqaro nashriyot kompaniyasi tomonidan 2024 yil uchun **“O‘zbekiston – eng yaxshi sayohat maskani”** nominatsiyasi g‘olibi bo‘lganligi munosabati bilan O‘zbekistonga maxsus sertifikat topshirildi. O‘zbekistonning 2024 yilda sayohat qilish uchun eng yaxshi davlatlar ro‘yxatiga kiritilishi va “World of Statistics” tomonidan bu haqda e‘lon qilinishi, xorijiy turistlar soni ortishi va turizm eksporti hajmining oshishiga xizmat qiladi. Bularning barchasi mamlakatimizning xalqaro maydonda yanada tanilishiga yordam beradi. Umuman olganda, O‘zbekistonda turizm sohasining hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalari ijobiy natijalarni ko‘rsatmoqda. Mamlakatimizda turizmni yanada rivojlantirish uchun amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va kelajakdagi istiqbollari haqidagi tahlillar ushbu sohaning strategik ahamiyatini tasdiqlaydi. Shuningdek, **“O‘zbekiston – 2030”** strategiyasida nazarda tutilgan turizmni rivojlantirishga oid vazifalar aholi daromadi oshishi, yangi ish o‘rinlari yaratilishi va xalq farovonligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston uchun turizm nafaqat iqtisodiy o‘sish manbai, balki siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim omilidir. Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish orqali xalqaro maydonda obro‘si oshirilmoqda, diplomatik aloqalar mustahkamlanmoqda va madaniy almashuvlar faol bo‘lib bormoqda.

**Iqtisodiy ahamiyati:** Turizm sohasining rivoji yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholining turmush farovonligini yaxshilash va mahalliy iqtisodiyotni kuchaytirishga katta hissa qo‘shmoqda. Masalan, 2019 yilda O‘zbekistonda turizmning YaIMdagi ulushi 3,4%ni tashkil etgan bo‘lib, yillik o‘sish sur‘ati 12,3%ni ko‘rsatgan.

**Siyosiy ahamiyati:** Turizm orqali mamlakatimiz xalqaro hamjamiyat bilan yanada yaqinlashib, diplomatik aloqalarni rivojlantirmoqda. “Buyuk Ipak yo‘li” kabi xalqaro turizm loyihalari mamlakatimizni dunyo miqyosida tanitishda muhim rol o‘ynamoqda.

**Ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati:** Turizm sohasining rivoji ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash, ta‘lim va madaniyat sohasini qo‘llab-quvvatlashga yordam bermoqda. Bu esa aholining turmush darajasini oshirishga, yangi ish o‘rinlarini yaratishga va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda turizm sohasining yanada rivojlanishi uchun davlat siyosati, infratuzilma va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarur. Bu esa mamlakatni global turizm bozorida yetakchi o‘rinlarga olib chiqish va xalqaro miqyosda yuksak obro‘ga erishish imkonini beradi. Shu tariqa, turizm O‘zbekistonning istiqbolli va barqaror rivojlanishida muhim omilga aylanishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

Amonboyev M., Abidova D.I., Jurayeva N.A. Turizm iqtisodiyoti va menejmenti. O‘quv qo‘llanma. – T.: “IQTISODIYOT”, 2019. - [https://renessans-edu.uz/files/books/2023-11-16-05-37-24\\_b875ded129fb6077674e987c56bcc2a7.pdf](https://renessans-edu.uz/files/books/2023-11-16-05-37-24_b875ded129fb6077674e987c56bcc2a7.pdf)

“O‘zbekistonda turizm sohasining rivojlanishi xalq farovonligining yuksalishiga xizmat qiladi” Iskandar O‘roqboev - <https://www.uzbekistan.org.ua/uz/yangiliklar/7108-o-zbekistonda-turizm-sohasining-rivojlanishi-xalq-farovonligining-yuksalishiga-xizmat-qiladi.html>

M.Amonboyev, S.Xalilov. Barqaror turizm rivojlanishi. O'quv qo'llanma. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021 [https://renessans-edu.uz/files/books/2023-11-15-04-10-00\\_cf808831729f9fabda14cebba39f63ae.pdf](https://renessans-edu.uz/files/books/2023-11-15-04-10-00_cf808831729f9fabda14cebba39f63ae.pdf)

<https://stat.uz/uz/>

<https://uzbekistan.travel/uz/uzbekistan/>